

**EKOLOGIYA VA ATROF - MUXIT BUZILISHINING INSON SALOMATLIGIGA  
TA’SIRI**

**Normuratov Oybek Ulug’berdiyevich**

*Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va tuproqshunoslik  
kafedrasida dotsenti., qishloq xo’jaligi fanlari doktori.*

**Normurodova Gulsanam Alisherovna**

*Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi  
(tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi 2- kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamizda hozirgi kunda barpo etiladigan barcha sanoat korxonalarini zamon talablariga mos keladigan texnologiyalari bilan jihozlanib o’rnatilmoqda deb yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** atrof-muhit, yurak-qon tomir kasalliklari, oziq-ovqat, aholining reproduktiv funksiyasi, inson salomatligini tiklash.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается, что все промышленные предприятия, строящиеся в настоящее время в нашей Республике, оснащаются технологиями, отвечающими требованиям времени.

**Ключевые слова:** Окружающая среда, сердечно-сосудистые заболевания, питание, репродуктивная функция населения, восстановление здоровья человека.

**Abstract:** This article emphasizes that all industrial enterprises currently being built in our Republic are equipped with technologies that meet the requirements of the time.

**Key words:** Environment, cardiovascular diseases, nutrition, reproductive function of the population, restoration of human health.

**Mavzuning dolzarbligi.** Tabiat insonlarning barcha talablarini qondiruvchi manbadir. Tabiat –bu butun moddiy borliqdir. Tabiat va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog‘langan yaxlit borliqning ikki bo‘lagini tashkil etadi. Inson va atrof-muhitning umumiy belgilari bilan bir qatorda o‘ziga xos tomonlari ham bor. Inson yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar –oziq-ovqat, kiyim, qurilish materiallari va boshqalar tabiatdan olinadi. Bunga erishish uchun tabiiy boyliklardan foydalaniladi, albatta bu xomashyolarni qayta ishlash lozim. Buning uchun ulkan sanoat infratuzilmasi yaratilgan. Yuqorida fikr yuritganimizdek, sanoat korxonalarini nafaqat mahsulotlar ishlab chiqaradi, balki atrof-muhitga chiqindilar ham tashlaydi, bu esa tabiatga o‘zini salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Hozirgi kunga kelib dunyo aholisi soni 8 mlrdga yetib bormoqda, albatta bu tabiiy resurslardan ko‘proq foydalanishga olib kelmoqda. Natijada atrof-muhitga tashlanadigan chiqindilar yildan yilga oshib ketmoqda. Shuning uchun Ona tabiatimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan sanoat chiqindilaridan himoyalash davr talabi bo‘lib qolmoqda, chunki ifloslangan tabiiy muhit nafaqat insonlarga, balki tabiatimizga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada nafaqat davlatimiz, balki dunyo davlatlari tomonidan bir qancha chora tadbirlar ishlab chiqilgan. Xalqaro

15-Iyun, 2026-yil

miqyosda juda ko‘p konvensiyalar BMT tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda amal qilinmoqda. Sanoat korxonalarini chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg‘or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz jarayonlardan foydalanishimiz lozim. Bunda eng asosiy maqsad-bu tabiiy resurslarga tejamkorona munosabat va atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish, qolaversa inson salomatligini tiklash. Respublikamizda hozirgi kunda barpo etiladigan barcha sanoat korxonalarini zamon talablariga mos keladigan texnologiyalari bilan jihozlanib o‘rnatilmoqda. Inson hech qachon tabiiyatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ming afsuski inson tabiatga misli ko‘rilmagan miqdorda ta‘sir ko‘rsatadi. Inson aql-zakovati orqali, mehnat faoliyati tufayli ta‘sir qilishini hech bir narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak mavjudotlar tabiatdan qanday bo‘lsa, shunday foydalanib, unga sezilarsiz ta‘sirini o‘tkazadi. Insoniyat uni o‘rab turgan barcha shart-sharoitlarga moslasha oladi, moslasha olmas, uni o‘zi istaklariga moslashtiradi, natijada tabiat muvozanati buziladi, buzilgan muvozanat esa katta ta‘lofatlarga olib keladi.

**Tadqiqot natijalari.** Biz atrof-muhitga va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadigan atrof-muhitga ta‘sirini tavsiflash bilan boshlaymiz. Bu yerda biz nafaqat o‘simliklar va hayvonlarga yetkazilgan zarar haqida gapiramiz, balki bu ta‘sirlar odamlarga ham ta‘sir qiladi. Odatda, qabul qilinadigan qarorlar atrof muhitga salbiy ta‘sirlarni kamaytirish, tabiiy muhitni himoya qilishdan ko‘ra, inson salomatligini himoya qilish uchun ko‘proq ahamiyatga ega. Ushbu ta‘sirlarning asosiy oqibatlarini umuman sayyoramizning ifloslanishidir. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yo‘q qilinishini, yashash joylarining parchalanishini va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Bularning barchasi kasalliklarning ko‘payishiga, biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga va o‘simlik va hayvonot dunyosida ham, odamlarda ham sog‘liq muammolariga olib keladi. Buyuk mutafakir bobomiz Abu ali ibn Sinoning hozirda ekologiya deb yuritilayotgan atrof-muhitning deyarli barcha omillari, ularga insonning, jonizotlarning ta‘siri va nihoyat, bu omillarning inson va jonizotlarga aks ta‘siri to‘g‘risidagi mashhur iboralarning krltirishning o‘zi kifoya. “Chang bo‘lmaganda inson 1000 yil yashagan bo‘lar edi”, yoki: “Havo toki muvozanatlangan va toza bo‘lsa, uning(pnevma) begona qo‘shimchalar qo‘shilmasa, u salomatlik garovi bo‘ladi, aks holda turli kasalliklarga sabab bo‘ladi” [6-9]. Yashash joyi muhiti borasida esa “Tib qonunlari”da alohida ta‘kidlab, shunday deyilgan: “Turar joy tanaga turlicha ta‘sir qilishi mumkin: balan yoki past joyligi, tuproq tarkibi hamda xususiyati, suvning seroblighi yoki kamyoblighi, darxtilarning mo‘llighi, qabriston yoki konlarga yaqinligi va boshqalar yashash joyi tanlanganda muhim ahamiyatga ega”. Bu fikrlar muhit to‘grisida bo‘lib, tibbiy ekologiyada tegishli ekanligi guvohi bo‘lamiz. Jahon statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va janglardan, 70% esa kasalliklardan o‘lmoqda. Shuningdek, bizning sog‘lig‘imizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90% asa o‘zimizga va atrof muhit hodisalariga bog‘liq. Bugun insoniyat uchun bundan zarur yoki ekologiyani, ekologik ong va tushunchani kundalik hayot tarziga singdirishdan ko‘ra muhimroq ish yo‘qdir. Ekologik ongni ekologik ta‘lim va tarbiya, ma‘lumotlar, insonlardagi ekologik ta‘lim orqali qayta qurish, uning hayot tarzini va ma‘naviyatini o‘zgartirish zarur.

15-Iyun, 2026-yil

Hozircha insonlar ongida ekologik qonunlarga bo‘ysunmaslik, tabiatga shunchaki nazar bilan qarash tasavvurlari singib ketgan. Insonlarning tabiatga bo‘lgan loqayd munosabatlari natijasida global isish va iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, Orol dengizining qurib borishi kabi muammolar tuzatib bo‘lmaydigan ekologik krizislarni keltirib chiqardi. Ekologik tushunchaning faqat insonlar tomonidan va faqat ularga xos shakllanishi – antropomarkaz tushuncha deb ataladi. Antropomarkaz tushunchasi inson uchun tabiat eng qimmatbaho, oliy degan tushuncha bo‘lib, bunda tabiat insonning shaxsiy mulki deb hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish va uni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunda respublika hududida yashovchi har bir inson hayotidagi muhim vazifalarning biri hisoblanadi. Harorat, atmosfera bosimi va magnit maydon kuchining keskin kundalik tebranishlari yurak-qon tomir kasalliklarining kechishini yomonlashtiradi. Ionlashtiruvchi nurlanish onkogen omillardan biridir. Tuproq va suvning ion tarkibining xususiyatlari, demak, o‘simlik va hayvonlardan olingan oziq-ovqat, u yoki bu element atomlarining tanasida ortiqcha yoki yetishmasligi bilan bog‘liq kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Masalan, tuproqda yod miqdori kam bo‘lgan joylarda ichimlik suvi va oziq-ovqatda yod yetishmasligi endemik buqoqning rivojlanishiga yordam beradi. Ijtimoiy xavf omillariga: noqulay turmush sharoitlari, turli xil stressli vaziyatlar, odamning turmush tarzining jismoniy harakatsizlik kabi rivojlanishi uchun xavf omilidir. Chekish kabi yomon odatlar bronxopulmoner va yurakqon tomir kasalliklari uchun xavf omilidir. Spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish alkogolizm, jigar kasalliklari, yurak kasalliklari va boshqalarning rivojlanishi uchun xavf tug‘diradi. Xavf omillari alohida shaxslar uchun (masalan, organizmning genetik xususiyatlari) yoki har xil turdagi ko‘plab shaxslar uchun (masalan, ionlashtiruvchi nurlanish) muhim bo‘lishi mumkin. Eng noqulay narsa - bu bir nechta xavf omillarining tanaga ta‘siri, masalan, semizlik, jismoniy harakatsizlik, chekish, uglevod almashinuvining buzilishi kabi xavf omillarining bir vaqtning o‘zida mavjudligi koroner yurak kasalligi rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi. Avvalo, shuni ta‘kidlash kerakki, har bir alohida organizmda, har bir alohida shaxsda patologik holat ko‘pincha darhol emas, balki charchoqning to‘planishi, kompensatsiyalanmagan stressli sharoitlar, ya‘ni tibbiyotda nima ko‘pincha kasallikdan oldingi holat deb ataladi. Kasalliklarni tasniflash, ularni bir necha asosiy guruhlarga bo‘lish mumkin.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki.** Nurlanishdan tashqari sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli chiqindilar, nitratlar va qishloq xo‘jaligida ko‘plab ishlatiladigan har xil zaharli qottilar (pestitsid) va mineral o‘g‘itlardi. Bu zarali moddalar ozuqa mahsulotlari orqali odam organizmiga tushib har xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma‘lumki bir mintaqada kasalliklarning tarqalishi shu joyda yashovchi aholi bilan atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq. Masalan, ko‘lmak suvlar to‘planib qolgan joylarda bezgak chivinining yashashi uchun qulay sharoit yaratiladi va shu shu joylarda bezgak kasalligining paydo bo‘lish ehtimoli yuzaga krladi. Afrika uyqu kasaligining paydo bo‘lishi uchun esa o‘tloqzorlar bo‘lishi kerak. Opistroxoz kasalligi daryo yoqalarida yashovchi kishilarda ko‘p uchraydi, chunki bu kasallikni keltirib chiqaradigan chuvalchangning oraliq xo‘jayini baliq bo‘lib, kasallik odamga baliq go‘шти orqali yuqadi. Bundan tashqari aholi

15-Iyun, 2026-yil

orasida ko‘p uchraydigan allrgik kasalliklarni ham misol qilib olishimiz mumkin . Ko'plab epidemiologik kuzatuvlar atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi va aholining reproduktiv funksiyasining buzilishi o'rtasidagi bevosita sabab-oqibat bog'liqligini ko'rsatadi. Bu mehnat sharoitida ham - metallurgiya zavodlari ishchilarida, to'qimachilik sanoati, gaz va neftni qayta ishlash korxonalarida, laborantlar va jarroh ayollarda ham, atmosferasi, suv manbalari va tuprog'i bilan ifloslangan aholi punktlarida ham aniqlandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. D.Yo.Yormatova. Ekologik monitoring. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011.
4. Arzikulov R.U. Sog‘lom turmush tarzi asoslari. I-tom-T.:2005.
5. Nazarov, A. (2021). The impact of the chemical industry on the environment. Eurasian journal of academic research 1(8), 145-148

Global  
Science  
Publication